

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
oktyabr



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2025-yil, oktyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	41
Radjabov Bunyod Abdullilovich	
XXI-ASRDA JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY DRAYVERLARI	45
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKI	48
Muyassarzoda Fayziyeva	
ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ И ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	52
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИИ	55
Ягудин Дмитрий Рустамович	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: GLOBAL TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	57
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INVESTITSION QARORLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	61
Djalilov Sardor Sadillovovich	
XALQARO IQTISODIYOTNING GLOBAL DAROMAD TENGSIZLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: SAVDO SIYOSATLARI VA REDISTRIBYUTSIYA MEKANIZMLARINING TAQQOSLAYDIGAN TAHLILI	64
Kurolov Maksud Obidovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA YHM O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	73
Zaripova Muqaddas Jumaniyozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI	77
Akmalbek Najimov Umid o'g'li, Dinara Ishmanova	
ПРАКТИКА И АНАЛИЗ КРЕДИТОВАНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ	81
Шамшетьева Гульраушан	



AHOLI DAROMADLARI O'SISHI VA INFLYATSIYA DARAJASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	83
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
KORXONALARDA MAHSULOT SAVDOSIGA OID MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INTELEKTUAL YONDASHUVLARI	86
Baydullayeva Dildora Tuylibayevna, Baydullayev Ruslan Tuylibayevich	
ELEKTRON TIJORATNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	90
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
RAQOBATBARDOSH ELEKTROTEXNIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVISHDA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYA VA INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI	93
Jalolov Abbosxon Ravshanxon	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VA SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	97
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
THE IMPACT OF EXTERNAL DEBT, INVESTMENT ACTIVITY, AND CAPITAL FORMATION PROCESSES ON EXPORT VOLUME AND ECONOMIC GROWTH DYNAMICS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES	102
Tojiqulova Sitara Sobirjon qizi	
HUMAN CAPITAL AND DIGITAL TRANSFORMATION: DRIVERS OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT	108
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich	
YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI SOLIQ SIYOSATINI USTUVOR JIHATLARINI MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA QO'LLASH ORQALI SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	110
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH KONSEPSIYASI	114
Turdibayev Abdulaziz Abduvaxidovich	
O'ZBEKISTONNING 12 YILLIK TA'LIM TIZIMIGA QAYTISH ISLOHOTI	118
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich	
MAMLAKATNING XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDAGI MAVQEINI YAXSHILASHDA IQTISODIY MUSTAHKAMLIKNING AHAMIYATI	123
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
XALQARO SAVDODA MARKETING ROLI: EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	125
Qurolov Maqsud Obitovich	
BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI VA ULARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	130
B.Izbosarov, N.Hakimova	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MASALASINING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	132
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
DYUZDO SPORTIDA MALAKALI SPORTCHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA TAKTIK TAYYORGARLIKNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	135
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
SANOATDA QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI OSHIRISH	138
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	



SANOATDA QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI OSHIRISH

Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari va ularni shakllantiruvchi omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faoliyat, texnologik modernizatsiya va kadrlar salohiyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar o'rganilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish zanjirlarini chuqurlashtirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va eksportga yo'naltirilgan siyosatni rivojlantirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari yoritilgan. Natijalar mamlakat sanoatining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qo'shilgan qiymat, sanoat ishlab chiqarishi, innovatsiya, texnologik modernizatsiya, mehnat samaradorligi, eksport, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article analyzes the economic mechanisms of increasing value added in the industrial sector and identifies the main factors shaping this process. The study examines the interrelations between production efficiency, innovation activity, technological modernization, and human capital development. It highlights the importance of energy-efficient technologies, the deepening of production chains, and the development of export-oriented industries to enhance national competitiveness. The findings provide practical implications for improving industrial performance and ensuring sustainable economic growth.

Keywords: value added, industrial production, innovation, technological modernization, labor productivity, export, competitiveness.

Аннотация. В данной статье исследованы экономические механизмы увеличения добавленной стоимости в промышленности и определены ключевые факторы, влияющие на этот процесс. Рассмотрены взаимосвязи между производительностью, инновационной активностью, технологической модернизацией и человеческим капиталом. Особое внимание уделено развитию экспортно-ориентированных отраслей, внедрению энергоэффективных технологий и углублению производственных цепочек для повышения конкурентоспособности промышленности. Полученные результаты могут быть использованы при формировании государственной промышленной политики и стратегий устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: добавленная стоимость, промышленность, инновации, технологическая модернизация, производительность труда, экспорт, конкурентоспособность.

Sanoat tarmog'i mamlakat iqtisodiy tizimining tayanch ustunlaridan biri bo'lib, milliy boylik yaratilishining asosiy manbai hisoblanadi. Ayniqsa, qo'shilgan qiymat hajmining oshishi iqtisodiy o'sish, bandlik darajasining ko'tarilishi va eksport salohiyatining kengayishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy sharoitda sanoat ishlab chiqarishining samaradorligi faqat ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan emas, balki ushbu mahsulotlar tarkibida yaratilgan yangi qiymat ulushi bilan belgilanadi. Shu bois, qo'shilgan qiymatni oshirish mamlakatning raqobatbardoshligini ta'minlashda strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnologik yangilash va diversifikatsiya qilish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni kengaytirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu jarayon sanoat tarmoqlarida xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o'tishni tezlashtirish, qo'shilgan qiymat zanjirlarini kengaytirish va ichki hamda tashqi bozorlarda yuqori raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqish imkonini bermoqda.

Ilmiy nuqtayi nazardan, qo'shilgan qiymat hajmini oshirish sanoat korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi, texnologik innovatsiyalar darajasi hamda boshqaruv tizimining sifatiga bevosita bog'liq. Shu bois, tarmoq darajasida resurslardan oqilona foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish zarur.

Sanoat tarmoqlarida qo'shilgan qiymat hajmini oshirish – bu iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish zanjirida innovatsion transformatsiyani



chuqurlashtirishni anglatadi. Qo'shilgan qiymat, mohiyatan, ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati bilan uning ishlab chiqarilishi uchun sarflangan oraliq iste'mol qiymati o'rtasidagi farqni ifodalaydi. Demak, uning oshishi ishlab chiqarish jarayonida yaratilayotgan yangi iqtisodiy qiymatning o'sishini bildiradi. Shu sababli, bu ko'rsatkich sanoat korxonalari faoliyatining eng muhim natijaviy indikatori sifatida iqtisodiy tahlilda asosiy o'rinni egallaydi.

Avvalo, qo'shilgan qiymat hajmini oshirishni ta'minlovchi omillar tizimiga e'tibor qaratish lozim. Bular sirasiga texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faoliyat, kadrlar salohiyati, energiya tejamkorlik darajasi, mahsulot diversifikatsiyasi hamda bozor konyunkturasiga moslashuvchanlik kiradi. Ularning har biri o'zaro bog'liq bo'lib, kompleks yondashuv orqali tarmoqning barqaror rivojlanishini belgilaydi (1-jadval).

1-jadval. Sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlili

Asosiy omil	Tavsif	Kutilayotgan iqtisodiy natija
Texnologik modernizatsiya	Zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish	Ishlab chiqarish tannarxining kamayishi, mahsulot sifati va raqobatbardoshlikning oshishi
Innovatsion faoliyat	Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish	Yangi mahsulot turlarining yaratilishi, ichki va tashqi bozorlarda eksport salohiyatining ortishi
Mehnat resurslari salohiyati	Yuqori malakali kadrlar tayyorlash, dual ta'lim tizimini rivojlantirish	Mehnat unumdorligining oshishi, ishlab chiqarish jarayonida inson kapitalining samarali ishlatilishi
Energiya tejamkor texnologiyalar	Resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish mexanizmlarini joriy etish	Energiya xarajatlarining qisqarishi va ekologik barqarorlik darajasining oshishi
Ishlab chiqarish zanjirlarini integratsiyalash	Xomashyo yetkazib beruvchilardan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilargacha yagona qiymat zanjirini shakllantirish	Mahalliy kooperatsiyaning kuchayishi, qo'shilgan qiymat hajmining ichki iqtisodiyotda to'planishi
Eksportga yo'naltirilgan siyosat	Chet el bozorlariga moslashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqish va marketing strategiyalarini takomillashtirish	Tashqi savdo balansining yaxshilanishi, milliy valyuta tushumlarining ortishi
Institutsional muhit	Qonunchilik, soliq va moliyaviy imtiyozlar orqali sanoat subyektlarini qo'llab-quvvatlash	Investitsiya faolligining oshishi va barqaror sanoat siyosatining shakllanishi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini oshirish ko'p omilli va o'zaro bog'liq jarayondir. Texnologik modernizatsiya ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish hamda mahsulot sifatini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Innovatsion faoliyat esa yangi mahsulot turlarini yaratish va eksport salohiyatini kengaytirish imkonini beradi. Mehnat resurslari salohiyatining yuqoriligi ishlab chiqarish jarayonida inson kapitalining asosiy drayver sifatida namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Energiya tejamkor texnologiyalar ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartiradi. Shuningdek, ishlab chiqarish zanjirlarining integratsiyasi mahalliy kooperatsiyani kuchaytirib, qo'shilgan qiymatning mamlakat ichida to'planishiga yordam beradi. Eksportga yo'naltirilgan siyosat va qulay institutsional muhit esa ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytiradi hamda sanoatning umumiy raqobatbardoshligini oshiradi.

O'zbekiston sanoati uchun so'nggi yillarda xos bo'lgan asosiy tendensiya – bu xomashyo yetkazib berishdan yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish jarayonining jadallashganidir. Masalan, neft-gaz, kimyo, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatlarida qayta ishlash darajasini chuqurlashtirish orqali eksportda tayyor mahsulot ulushi bosqichma-bosqich oshmoqda. Bunday transformatsiya iqtisodiyotning strukturaviy o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ichki bozorni xomashyo eksportiga qaramlikdan ozod etishga xizmat qiladi.

Texnologik modernizatsiya sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari, raqamli boshqaruv tizimlari va avtomatlashtirilgan jarayonlarning joriy etilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot sifati yaxshilanishiga olib keladi. Masalan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar sanoat korxonalarining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Bunda "Smart Factory", "Industrial IoT" va "Big Data Analytics" kabi konsepsiyalar ishlab chiqarish resurslarini real vaqt rejimida boshqarish imkonini bermoqda.

Shuningdek, innovatsion faoliyat qo'shilgan qiymatning eng yuqori manbai sifatida maydonga chiqmoqda. Ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (R&D) natijalari asosida yangi mahsulot turlari, ilg'or materiallar va texnologik yechimlar yaratish tarmoqning raqobatbardoshligini belgilaydi. Misol uchun, farmatsevtika, elektrotexnika va biotexnologiya sohalarida innovatsiyalar qo'shilgan qiymat zanjirini bir necha bosqichga kengaytiradi. O'zbekiston sharoitida innovatsion ekotizimni shakllantirish uchun texnoparklar, biznes-inkubatorlar, startap markazlarining faoliyatini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'shilgan qiymatni oshirishda mehnat resurslarining malakasi ham beqiyos rol o'ynaydi. Yuqori texnologik ishlab chiqarish jarayonlari yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi. Shu sababli, sanoat tarmoqlarida kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqarishning yangi talablari bilan uyg'unlashtirish zarur. "Dual ta'lim" modeli, ya'ni nazariya bilan amaliyotni integratsiya qilish orqali kadrlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish – qo'shilgan qiymat o'sishining inson omiliga tayanadigan muhim mexanizmdir.

Bundan tashqari, sanoat tarmoqlarida energiya tejamkorlikni ta'minlash ham iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Energiya resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va "yashil texnologiyalar"ni joriy etish ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi, bu esa natijada yangi qiymat yaratilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, energetika, metallurgiya va sement ishlab chiqarish tarmoqlarida chiqindi issiqlikdan elektr energiyasi olish texnologiyalarini joriy etish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini 10–15% gacha kamaytirish mumkin.

Qo'shilgan qiymat hajmini oshirish uchun iqtisodiy siyosat darajasida ham tizimli yondashuv talab etiladi. Bu jarayonni rag'batlantirishda fiskal imtiyozlar, eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar va kredit yengilliklari muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, O'zbekistonda qabul qilingan "Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi" va "Innovatsion rivojlanish strategiyasi" doirasidagi mexanizmlar qo'shilgan qiymatni oshirishga yo'naltirilgan amaliy siyosatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan, qo'shilgan qiymat hajmining o'sishi yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atlari bilan bevosita bog'liq. YaIMda sanoatning ulushi oshgani sari mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati kengayadi, bu esa iqtisodiy barqarorlik va tashqi savdo balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, qo'shilgan qiymat faqat tarmoq darajasida emas, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik indeksini belgilovchi strategik ko'rsatkich sifatida ham qaraladi.

Qo'shilgan qiymat hajmini oshirishning yana bir muhim jihati – ishlab chiqarish zanjirlarining vertikal integratsiyasini kuchaytirishdir. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xomashyo yetkazib beruvchilardan tayyor mahsulot eksport qiluvchilarigacha yagona zanjirda birlashtirish ishlab chiqarishning kompleks xarakterini ta'minlaydi. Bu esa iqtisodiyotda ichki kooperatsiya va sinergiya effektini kuchaytiradi. Xususan, to'qimachilik va avtomobilsozlik sohalarida bunday integratsiya samarali natijalar bermoqda: xom paxtadan tayyor kiyim-kechak, metallardan esa tayyor mashina va agregatlar ishlab chiqarish darajasi ortmoqda.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun korxonalarning eksport faoliyatini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish korxonalarning sifat standartlariga moslashuvchanligini oshiradi, chet el bozorlarida o'z o'rnini topish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot yaratishga turtki beradi. Shu jihatdan, xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga qo'shilish, eksport marketingini rivojlantirish va logistika infratuzilmasini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardandir.

Sanoatning hududiy diversifikatsiyasi ham qo'shilgan qiymat o'sishida muhim rol o'ynaydi. Viloyatlar kesimida sanoat korxonalarining notekis joylashuvi ishlab chiqarish salohiyatida tafovutlar keltirib chiqaradi. Shu sababli, mintaqaviy sanoat siyosati har bir hududning xomashyo bazasi, mehnat resurslari va transport infratuzilmasi imkoniyatlariga asoslanishi zarur. Masalan, Navoiy viloyatida kimyo va energetika tarmoqlari, Andijonda mashinasozlik, Farg'onada neftni qayta ishlash, Qoraqalpog'istonda esa qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi qo'shilgan qiymatning hududiy balansini ta'minlaydi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini oshirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va milliy raqobatbardoshlikni kuchaytirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu jarayonning muvaffaqiyati texnologik modernizatsiya, innovatsion faoliyatni kengaytirish, ishlab chiqarishning raqamli transformatsiyasi va mehnat resurslarining malakasini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan texnologik yechimlar, resurslardan tejamkor foydalanish va ishlab chiqarish zanjirlarini vertikal integratsiya qilish orqali sanoat korxonalari faoliyatida yuqori qo'shilgan qiymat yaratilishiga erishish mumkin. Shu bilan birga, hududiy diversifikatsiya siyosatini kuchaytirish, mintaqaviy ixtisoslashuvni qo'llab-quvvatlash va logistika infratuzilmasini rivojlantirish mamlakat miqyosida sanoatning muvozanatli o'sishiga turtki beradi.

Sohani yanada rivojlantirish uchun davlat siyosatida ishlab chiqaruvchilarni innovatsion faoliyatga jalb etuvchi moliyaviy va fiskal rag'batlar tizimini kengaytirish zarur. Eksportga yo'naltirilgan korxonalarga sertifikatlash, texnologik yangilanish va marketing sohalarida qo'shimcha yengilliklar berilishi, shuningdek, ilmiy muassasalar, xususiy sektor va davlat o'rtasida "Triple Helix" modeliga asoslangan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muhimdir. Mehnat resurslari tayyorlov tizimida dual ta'lim modelini keng joriy etish, ishlab chiqarish korxonalarida texnopark va innovatsion markazlar faoliyatini kuchaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni



qo'llash orqali sanoatda yangi qiymat yaratuvchi mexanizmlarni rivojlantirish lozim. Shu tarzda, O'zbekiston sanoatida qo'shilgan qiymat hajmini oshirish milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini ta'minlaydigan asosiy strategik yo'nalish sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Philippe Aghion, Peter Howitt. The Economics of Growth. – Cambridge, MA: MIT Press, 2009. – 501 p.
2. Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc Melitz. International Economics: Theory and Policy. – New York: Pearson, 2018. – 792 p.
3. Michael E. Porter. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
4. David J. Teece. Dynamic Capabilities and Strategic Management: Organizing for Innovation and Growth. – Oxford: Oxford University Press, 2009. – 256 p.
5. N.A. Toshpulatova. Innovatsion iqtisodiyot shakllanishining nazariy asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2020. – 284 b.
6. John Maynard Keynes. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936. – 403 p.
7. Dani Rodrik. Industrial Policy for the Twenty-First Century. – Harvard University, Kennedy School of Government, 2004. – 48 p.
8. U. Ubaydullayev. O'zbekiston sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 312 b.
9. А.А. Абрамов, Д.В. Соколов. Механизмы модернизации промышленности в инновационной экономике. – М.: Инфра-М, 2021. – 287 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100